



## SINXRON TARJIMON TAYYORLASHNING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLI

*Tuxtasinov Ilhomjon Madamanovich*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*rektori, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada bugungi kunda tarjimon, xususan sinxron tarjimon tayyorlashning bugungi holati, tarjimon tayyorlashdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari xususida so‘z yuritiladi.

**Key words:** *asliyat matn, tarjima matn, tarjima, sinxron tarjimon, aniqlik, lo‘ndalik, funksional ekvivalentlik.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan sohasini yanada takomillashtirish, ilm-fanning so‘ngi yutuqlarini davlat va jamiyat xayotining xar bir jabxasiga keng tadbqiq etish borasida bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari” hamda 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmoni bilan tasdiqlangan “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari”ga erishish masalalarini ustuvor vazifalar qilib belgilanishi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bu jarayonlarda tarjimashunoslik, tarjima didaktikasi sohalarida ham bir qator ilmiy izlanishlar sonini kengaytirish, tarjimon tayyorlash ishlarini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida ham mana shu kabi dolzarb masalalarga yechim topish, professional tarjimonlar tayyorlash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Universitetda tarjimon tayyorlashga ixtisoslashgan alohida Tarjimonlik fakulteti mavjud bo‘lib, fakultet 1994 yilda tashkil topgan. Unda tarjima nazariyasi va amaliyoti ta‘lim yo‘nalishi hamda mutaxassisligi mavjud. Mazkur fakultetda malakali tarjimonlar tayyorlash, ularning xorijiy tillarni bilish hamda og‘zaki va yozma tarjima bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Fakultetda dastlab faqat ingliz, nemis va fransuz tillari bo‘yicha o‘qitilgan bo‘lsa, hozirda ingliz, nemis, fransuz, italyan, turk, arab tillari hamda gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili) bo‘yicha ham mutaxassislar tayyorlanmoqda. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab

70230202-Sinxron tarjima (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha qabul kvotasi ajratilgan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta'limning me'yoriy uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida gi 259-sonli buyrug‘iga muvofiq 70230202-Sinxron tarjima (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi uchun malaka talabi ishlab chiqilib “Tillar” ta'lim sohasi kengashi muhokamasidan o‘tkazilgan va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 avgustdagi 397-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan. Ushbu mutaxassislik bo‘yicha bitirgan talabaga sinxron-tarjimon, tadqiqotchi-pedagog kvalifikatsiyasi beriladi. Ushbu malaka talabi asosida o‘quv reja tuzilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Sinxron tarjima og‘zaki tarjimaning eng murakkab turi hisoblanib, sinxron tarjimada tarjimon so‘zlovchining nutqini eshitib, shu zahotiy oq tarjima qilishi kerak. Odatda, sinxron tarjima texnik vositalarni qo‘llash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda so‘zlovchining nutqi maxsus kabinada o‘tirgan tarjimonga «eshitgichlar» orqali yetkaziladi va tarjimonning mikrofoniga uzatgan tarjimasi tinglovchilarga yetkaziladi [1]. Sinxron tarjima jarayonida tarjimon juda katta ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarga duch keladi, chunki sinxron tarjima o‘ta murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimon so‘zlovchi nutqi tezligidan orqada qolmasdan tarjima qilishi zarur. Shuning uchun sinxron tarjimonlar 20-30 daqiqa ishlab, keyin boshqa tarjimonlar bilan o‘rin almashadi.

Sinxron tarjima imkoniyatlarining chegaralanganligi:

- 1) notiq bilan bir vaqtda nutqini teng tarjima qilish;
- 2) vaktning ziqligi (pauzalar yo‘q);
- 3) puxta, atroflicha o‘ylab, tarjima qilish imkoniyatining yo‘qligi;
- 4) qayta so‘rash, aniqlashtirish imkoniyati yo‘qligi;
- 5) ham eshitib ulgurish, ham tarjima qilish, ham vaziyatni hushyor baholash kabi mas'uliyatlar [2].

Sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida gapirganda, asosiy narsani ta’kidlash kerak: konferensiya tarjimasi jarayonida sinxron tarjimon eng kuchli hissiy va jismoniy stressni boshdan kechiradi, bu birinchi navbatda, ma’lumotni bir vaqtning o‘zida dekodlash va kodlash natijasida yuzaga keladi. Miyada yuzaga keladigan tez fursatdagi til almashinuvi miyani ikki karra tezroq ishlashga majbur qiladi.

Sinxron tarjima bir tildan ikkinchi tilga axborot o‘g‘irishning bir turi sifatida XX asrning 60-yillarida maxsus tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganila boshlandi. 70-yillarning boshlarida esa eshitib tarjima qilishning nutqiy, psixologik mexanizmlari, original tildan eshitilgan nutqiy axborotni bir paytning o‘zida ikkinchi tilga tarjima

qilib gapirish, uning lisoniy, psixologik asoslari haqida tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi [3].

Sinxron tarjimaning yana bir o‘ziga xos jihati unda tarjimon bir vaqtning o‘zida bir tilda malumotni qabul qilishi ya’ni idrok etishi, uni tarjima qilishi va tayyor tarjimaning vokallashtirishi lozim bo‘ladi. Shu sababli ham tarjima uchun alohida vaqt ajratilishi talab qilinmaydi va ma’ruzachi ham o‘z nutqini to‘xtatishga majbur bo‘lmaydi. Bir paytning o‘zida og‘zaki nutqni eshitish va uni tarjima qilish sinxron tarjimaning asosiy xususiyati hisoblanadi<sup>1</sup>. Sinxron tarjima - bir tilda gaplashmaydigan ma’ruzachi va tinglovchi o‘rtasida jonli aloqani taminlash, ko‘prik vazifasini bajarishdir.

Bugungi kunda sinxron tarjimonlar tayyorlash bilan bog‘liq muammolar haqida so‘z ketganda quyidagilarni takidlab o‘tish maqsadga muvofiq:

❖ birinchidan, bugungi kunda tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarning guruhlardagi soni tarjimon tayyorlash bo‘yicha meyordan ortiq. Guruhlarda 17 tadan 20 tagacha talaba o‘qiydi. Bu esa tarjima amaliyotini, jumladan ketma-ket va sinxron tarjima amaliyotini kengaytirishga to‘sqinlik qiladi;

❖ ikkinchidan, tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz, nemis, fransuz, italyan, arab, turk tillari) bo‘yicha bakalavr va sinxron tarjima hamda qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik magistratura mutaxassisligi o‘quv rejalarida mutaxassislik fanlariga ajratilgan soatlar kam;

❖ uchinchidan, talabalarning tarjima amaliyotini ixtisoslashmaganligi, ya’ni talabalarni tarjimaning aniq sohasi, xususan, tibbiyot, iqtisod, sud-xuquq tizimi sohalari-ga yo‘naltirilmagani ularni malakali mutaxassis bo‘lishlarida salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarga sohaviy tarjimini o‘qitishda sohaviy xorijiy tilni o‘qitish yo‘lga qo‘yilmagan;

❖ to‘rtinchidan, tarjimaning xar qanday turi bo‘yicha dars beradigan professor-o‘qituvchilarni xorijda malaka oshirish ko‘rsatkichi kam. Bu esa bugungi kunda sinxron tarjimini o‘qitish sohasidagi ilg‘or tajribalarni amaliyotga keng tadbiq qilish imkonini bermaydi;

❖ beshinchidan, sinxron tarjima laboratoriya honalari tarjimonlik fakultetida talabalar kontingenti bilan mutanosib emas. Odatda xar bir talaba o‘qish jarayonining 5-8 semesterlarida sinxron tarjima amaliyoti bilan doimiy shug‘illanib borishi lozim;

❖ oltinchidan, sinxron tarjima magistratura mutaxassisligi bo‘yicha qabul qilingan magistr talabalarining bakalavr bosqichi tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi emas. Ushbu mutaxassislikga qabul qilingan talabalarning aksariyati xorijiy til adabiyoti, filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishlari bitiruvchilar xisoblanadi.

---

<sup>1</sup>Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – London and New York. Routledge: Taylor and Francis Group, 2011. -232 p

Yuqorida takidlab o‘tilgan xulosalar bugungi kunda sinxron tarjimon tayyorlash jarayoni va sifatiga salbiy tasir ko‘rsatmoqda. Mazkur muammolarni chuqur o‘rganib, orttirilgan tajribalarga tayangan xolda takidlab o‘tilgan muammolarga yechim sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

- guruhlardagi talabalar sonini meyorlashtirish, ya’ni talabalar sonini 10-12 taga qisqartirish;

- bakalavr va magistratura o‘quv rejalarida mutaxassislik fanlariga ajratiladigan soatlarni ko‘paytirish;

- talabalarni 1-kursdan boshlab saralash va ularni sohaviy tarjima guruhlariga ya’ni, iqtisodiyot, tibbiyot, ekologiya, sport, sanatshunoslik, badiiy tarjima kabilarga ajratib o‘qitish;

- talabalarni 2- va 3- kurslarda xorijiy til bo‘yicha fanlarni sohaviy xorijiy til asosida o‘qitish, masalan, English for Economics, English for Ecology;

- tarjima va ayniqsa og‘zaki tarjima fanlaridan dars beruvchi professor-o‘qituvchilarni tarjimonlar tayyorlovchi chet eldagi OTMlarga malaka oshirish kurslariga yuborish;

- Amerika tarjimonlar assosiasiyasi (ingl. American Translators Association yoki qisqacha ATA) AQShning eng yirik professional tarjimonlar birlashmasi va Xalqaro konferensiya tarjimonlari assosiasiyasi (FR. Association internationale des interprètes de conférence — AIIC) sinxron tarjima bo‘yicha mutaxassislarni birlashtirgan xalqaro professional jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish;

- sinxron tarjimonlar uchun mavjud moddiy-texnik bazani takomillashtirish. Sinxron tarjima laboratoriyalar sonini ko‘paytirish.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, sinxron tarjimon tayyorlash masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizning xar sohada jahon hamjamiyati bilan o‘zaro integrallashuvi jarayonida xalqaro xamkorlikni o‘rnatish va uni rivojlantirishda og‘zaki tarjimonlar, xususan sinxron tarjimonlarni roli katta. Sinxron tarjimon tayyorlovchi oliy ta’lim muaxassasali dasturlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, bo‘lajak tarjimonlarni ixtisoslashtirish, sinxron tarjimonlarga ko‘proq amaliyot jarayonlarini tashkil etish, xorijning ilg‘or tajribalarini ta’lim tizimiga keng tadbiq qilish sinxron tarjimon tayyorlashdagi mavjud muammolarga yechim bo‘la oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – London and New York. Routledge: Taylor and Francis Group, 2011. -232 p.
2. Nida E. Towards a Science of Translating. – Leiden, 1964. – 331 pp.
3. Savory T. The art of Translation. – London, 1957. – P. 102.



4. Виссон Лин. Практикум по синхронному переводу с русского на английский. – Москва, 2000. – 200 с.

5. Корннева Л.И. Теоретико-методологические основы подготовки лингвистов-переводчиков в ВУЗе: монография. под общ. ред. Л.И.Корнеевой. – Екатеринбург: УрФУ, 2016. – 288 с.

6. Юнусова А.А. Методическая система подготовки студентов по специальности «переводчик» в современной языковой ситуации в Таджикистане: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2011. – 19 с.